

O'ZBEKISTON PROFESSIONAL  
FUTBOL LIGASI TOMONIDAN  
O'TKAZILADIGAN TADBIRLAR VA  
MUSOBAQALARDA ISHLOVCHI OAV  
VAKILLARI UCHUN  
MEDIA YO'RIQNOMA

UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

Toshkent shahri 2024-yil

## Atamalar

Akkreditatsiya – O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan (keyingi o'rirlarda – Liga) o'tkaziladigan tadbirlar va musobaqalarda qatnashish istagini bildirgan OAV vakillari uchun taqdim etiladigan ruxsatnoma;

Musobaqa – Liga tomonidan o'tkaziladigan barcha turdag'i musobaqalarning futbol uchrashuvi.

Tadbir – Musobaqa oldi mashg'ulot jarayonlari, matbuot anjumanlari, Liganing navbatdagi va navbatdan tashqari anjumanlari, qur'a tashlash marosimlari, Musobaqalarning ochilish va yopilish marosimlari, Liga tomonidan o'tkaziladigan boshqa tadbirlar.

Mikst-zona – Musobaqa yakunida OAV vakillari futbolchilar, murabbiylar va rasmiy shaxslardan intervyu olishi uchun mo'ljallangan, jamoalarning kiyinish xonasidan boshlab, ularning avtobusigacha bo'lgan maxsus harakatlanish hududi.

Flesh-intervyu – Musobaqa yakuniga yetgach futbolchi yoki murabbiy bilan maydon chetida ajratilgan maxsus hududda uyushtiriladigan qisqa intervyu.

Klub rasmiysi – Musobaqada ishtirok etuvchi futbol klubi futbolchisi, murabbiyi yoki boshqa lavozimdag'i rasmiy shaxsi.

### **1-bob**

#### Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur yo'riqnomaga O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, barcha turdag'i OAV va uning xodimlarini Liga tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar va musobaqalar uchun akkreditatsiyadan o'tkazish, OAV vakillarining musobaqalar davomidagi huquq va majburiyatları, OAV vakillarini akkreditatsiyadan mahrum qilish tartibi, shuningdek, OAV vakillarining Liga tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalarni tartibga soladi.

1.2. Liga tomonidan OAV vakillari uchun taqdim etilgan mavsumiy akkreditatsiya keyingi mavsum uchun akkreditatsiyalar taqdim etilgunga qadar rasmiy Tadbirlar va Musobaqalar uchun amalda bo'ladi. Akkreditatsiyaning muddati o'tgani masalasida Liga matbuot xizmati tashkilot saytida rasmiy axborot taqdim etadi.

1.3. O'zbekistonda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan OAV o'z xodimlarini Liga tomonidan tashkil etiladigan tadbir va musobaqa uchun akkreditatsiyadan o'tkazishi mumkin.

1.4. OAV o'z vakilini akkreditatsiyadan o'tkazishi uchun Liga matbuot xizmati tomonidan rasman e'lon qilingan muddat ichida rasmiy ariza taqdim etishi talab etiladi. Mazkur arizaga akkreditatsiya olishi kerak bo'lgan vakillar ro'yxati ilova qilinadi.

1.5. Xorijiy OAV o'z xodimini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun yilning istalgan davrida ariza taqdim etishi mumkin. Buning uchun OAV vakili tegishli

davlat organidan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim. Xorijiy OAV vakilining matbuot anjumanida so'zlashuvchi til bilan bog'liq masalasi uchun Musobaqa tashkilotchisi javobgar hisoblanmaydi.

1.6. Liga matbuot xizmati o'z shaxsiy sahifasi mavjud bo'lgan mustaqil jurnalistlar, bloger va vlogerlar uchun ham akkreditatsiya taqdim etishi mumkin. Bunda ariza beruvchining sahifasi va uning kontenti tashkilot tomonidan o'rGANIB chiqiladi. Liga lozim topmagan sahifa yurituvchisi uchun akkreditatsiya berilmaydi.

1.7. Futbol muxlislari tomonidan tashkil etilgan, u yoki bu klub manfaatlari hamda qarashlarinigina ifoda etuvchi sahifalar yurituvchilariga akkreditatsiya taqdim etilmaydi.

1.8. Har qanday OAV musobaqalar davomida O'FA hamda Liga Reglamentlarida, me'yoriy hujjatlarida, shuningdek, mazkur tashkilotlarning boshqa tashkilotlar bilan kelishuv hamda shartnomalarida aks etgan bandlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari talab etiladi.

1.9. OAV vakillari jurnalistik odob-ahloq hamda etika normalariga qat'iy rioya qilishlari lozim. Shuningdek Liga akkreditatsiyasiga ega OAV quyidagilarga ryoYa qilishi lozim:

- Liga ramzlaridan tijoriy maqsadlarda rasmiy ruxsatsiz foydalanmaslik;
- Liga bilan bog'liq axborot e'lon qilinayotganda faktlarga Liga matbuot xizmati orqali aniqlik kiritib olish;
- Liga tomonidan o'tkaziladigan Musobaqa yoritilayotganda matnlarda musobaqaning rasmiy nomini to'liq ko'rsatish.

1.10. Liga akkreditatsiyadan o'tgan OAV vakillarining tadbir yoki musobaqa o'tkazilayotgan hududga taqdim etilgan akkreditatsiya yordamida bepul kirishini ta'minlaydi.

1.11. Liga tomonidan o'tkazilgan tadbir yoki musobaqaga tegishli videoyozuv va fotosuratlardan tijoriy maqsadlarda foydalanish faqatgina Liga bilan rasmiy kelishuv asosida amalga oshiriladi.

1.12. Akkreditatsiyadan o'tmaslik O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunida belgilangan jurnalistlarning huquqlariga dahl qilmaydi.

## 2-bob

### Klub matbuot xizmati vazifalari

2.1. Klub matbuot kotibi OAV bilan aloqalar o'rnatish, jamoatchilik orasida klub imidjini shakllantirish, klub faoliyatini yoritib borish bilan shug'ullanadi va bu borada Liga media xizmati bilan hamkorlik qiladi.

2.2. Matbuot kotibi o'zi faoliyat olib borayotgan klubga tegishli tadbirlar va musobaqalar o'tkazishda bevosita ishtirok etadi hamda rasmiy sahifalarda e'lon qilingan materiallar uchun javobgar hisoblanadi.

2.3. Musobaqalar davomida klub matbuot kotibining uy va safar uchrashuvlarida to'liq ishtirok etishi majburiy hisoblanadi.

2.4. Mezbon klub matbuot kotibi uchrashuvni yoritish uchun tashrif buyurgan videooperatorlar va fotomuxbirlarga maxsus nimchalar taqdim etishi

lozim. Videooperatorlar va fotomuxbirlar uchrashuv davomida nimchalarda faoliyat olib borishi masalasi uchun klub matbuot xizmati javobgar hisoblanadi.

2.5. Musobaqalardan keyingi matbuot anjumanini tashkil etish va o'tkazish uchun mezbon klub matbuot kotibi javobgar hisoblanadi.

2.6. Matbuot anjumanida ishtirok etadigan murabbiy yoki futbolchi xorijlik bo'lib, o'zbek tilida so'zlasha olmasa, u bilan shartnoma imzolagan klub mazkur rasmiy shaxs nutqini o'zbek tiliga tarjima qilish uchun tarjimon yollagan bo'lishi talab etiladi.

2.7. Har bir klub o'z rasmiy veb-saytiga hamda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda o'z sahifasiga ega bo'lishi shart. Klub matbuot kotibi veb-saytning barqaror faoliyat olib borishi uchun javobgar hisoblanadi.

2.8. Mezbon klub matbuot kotibi uy uchrashuvlari uchun Musobaqaga oid ma'lumotlar aks etgan dasturnomalar tayyorlashi va ularni stadionga tashrif buyurgan OAV vakillariga taqdim etishi tavsiya etiladi.

2.9. Media-tribuna, matbuot anjumanlari zali va media-markazga rasmiy tadbirlar vaqtida OAV xodimlaridan tashqari boshqa shaxslar kiritilishi taqiqlanadi. Bu uchun klub matbuot kotibi mas'uldir.

2.10. Media-tribuna, matbuot anjumanlari zali va media-markaz tezkor wifi bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

### 3-bob

#### Matbuot anjumani

3.1. Musobaqa yakunlanganligini bildiruvchi hakam hushtagidan keyingi 15 daqiqa oralig'ida klublar bosh murabbiylari ishtirokida matbuot anjumani boshlanishi kerak.

3.2. Musobaqadan keyingi matbuot anjumanida birinchi bo'lib mehmon jamoa bosh murabbiyi ishtirok etadi.

3.3. Musobaqa yakunida o'tkaziladigan matbuot anjumanida Liga matbuot xizmati tomonidan taqdim etilgan akrreditatsiyasi mavjud bo'lgan OAV vakillari ishtirok etishiga ruxsat beriladi. Liga matbuot xizmati ro'yxatdan o'tgan OAV va ularning vakillari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

3.4. Matbuot anjumani vaqtida HB akrreditatsiyaga ega bo'lgan operator kamerasi videooperatorlar uchun maxsus joyning markaziy qismiga qo'yilishi bo'yicha ustuvor huquqga ega hisoblanadi. NRH akkreditatsiyasiga ega xodimlar shundan kelib chiqib, o'z pozitsiyalarini aniqlab olishlari talab etiladi.

### 4-bob

#### Akkreditatsiya turlari va ular uchun ruxsat etilgan hududlar

4.1. Akkreditatsiya kartasi OAV xodimining akkreditatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

4.2. OAV vakillari quyidagi yo'naliishlarda akkreditatsiyadan o'tishlari mumkin:

- PRE - bosma davriy, radio va internet OAV uchun mo'ljallangan akkreditatsiya. U OAV xodimiga tadbir yoki Musobaqa o'tkazilayotgan

joydagi media-tribuna, matbuot markazi, matbuot anjumanlari zali, shuningdek, mikst-zonaga kirish huquqini beradi;

- PHO – fotomuxbirlar uchun mo'ljallangan akkreditatsiya. Uning yordamida tadbir yoki musobaqa o'tkazilayotgan joydagi matbuot markazi va matbuot anjumanlari zaliga kirish, shuningdek, musobaqa vaqtida maydon chetida (suratga olish uchun maxsus ajratilgan hudud – darvozalar ortida) faoliyat olib borish huquqini beradi. Fotomuxbirning o'yin paytida bir darvoza ortidan ikkinchi darvoza ortiga harakatlanishi taqiqlanadi. Bir darvoza ortidan ikkinchi darvoza ortiga o'tib olish uchun tanaffus vaqtida ruxsat etiladi. Shunungdek, o'yin yakuniga yetgandan so'ng jamoalar va rasmiylar (zaxira o'rindig'idagi rasmiy shaxslar, hakamlar brigadasi) maydonni tark etmagunicha o'zlariga ajratilgan hududni tark etishlari taqiqlanadi.
- HB – Musobaqani translyatsiya qilish huquqiga ega bo'lgan telekanal uchun mo'ljallangan akkreditatsiya. Uning yordamida tadbir yoki musobaqa o'tkazilayotgan joydagi media-tribunaga, matbuot markazi va matbuot anjumanlari zaliga, musobaqa startiga qadar jamoalarning kiyinish xonasiga (o'yin komissari bilan kelishilgan holda belgilangan vaqt oralig'ida), mikst-zonaga, shuningdek, maydon chetida (suratga olish uchun maxsus ajratilgan hududda) turish huquqini beradi.
- NRH – Tadbir yoki musobaqani translyatsiya qilish huquqiga ega bo'lмаган telekanal va/yoki boshqa platformalar vakili uchun akkreditatsiya. Uning yordamida Musobaqa davom etayotgan vaqtida qisman (uzluksiz bo'lмаган), o'yinoldi va o'yindan keyingi jarayonlarni esa to'liq tasvirga tushirish imkonи mavjud. Mazkur akkreditatsiyaga ega bo'lgan OAV vakiliga matbuot markazi va matbuot anjumanlari zaliga kirish, shuningdek, maydon chetida (suratga olish uchun maxsus ajratilgan hudud – darvozalar ortida) turish huquqi beriladi. Bunda uning o'yin paytida bir darvoza ortidan ikkinchi darvoza ortiga harakatlanishi taqiqlanadi. Bir darvoza ortidan ikkinchi darvoza ortiga o'tib olish uchun tanaffus vaqtida ruxsat etiladi.

4.3. Liga rasmiy fotomuxbiri yoki videooperatori maydon atrofidagi istalgan hududda ishlashi mumkin.

4.4. Akkreditatsiya turi hamda musobaqani o'tkazish davomida shu akkreditatsiya uchun ruxsat etilgan zonalar akkreditatsiya kartasida ko'rsatiladi. Akkreditatsiya egasi o'z akkreditatsiyasida ko'rsatilmagan hudud bo'ylab harakatlanishi taqiqlanadi.

4.5. Fotosuratchilar va operatorlar maxsus nimcha kiygan bo'lislari shart.

4.6. OAV xodimlarining o'ziga tegishli bo'lмаган hududlarda bo'lishi, ayniqsa, jamoa texnik hududiga kirishi, nimchasiz maydon atrofida harakatlanishi va ishlashi taqiqlanadi.

4.7. OAV xodimlarining 4.2, 4.4, 4.5, 4.6-bandlariga amal qilishini nazorat qilish uchun mezbon klub matbuot xizmati mas'uldir.

4.8. Faqatgina Liga bilan rasmiy shartnomasi bo'lgan OAV uchungina musobaqa oldidan maxsus ajratilgan hududda jamoalar bosh murabbiyidan qisqa intervyu olish hamda Musobaqa yakunida alohida ajratilgan hududda

flesh-intervyu olish huquqi beriladi. Bunday shartnomasi mavjud bo'lмаган OAV vakili faqatgina uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanida yoki mikst-zonada futbolchi/murabbiy bilan intervyu uyushtirishi uchun ruxsat etiladi.

4.9. Musobaqa oldidan, davomida va undan keyin klub rasmiysi bilan istalgan nuqtada intervyu uyushtirish uchun ruxsat etilmaydi. Intervyu olishga flesh-intervyu zonasini, mikst-zona yoki matbuot anjumani zalidagina ruxsat etiladi.

4.10. Flesh-intervyu zonasida akkreditatsiya egasi tomonidan berilgan savolga javob qaytarishdan bosh tortgan futbolchi yoki murabbiy, matbuot anjumanida ishtirok etmagan murabbiy, shuningdek, mikst-zonani chetlab o'tgan futbolchi yoki murabbiy xatti-harakati tefishli Musobaqalar reglamenti asosida o'rganib chiqiladi. Buning uchun OAV mazkur masala asoslantirilgan rasmiy xatni Ligaga taqdim etishi talab etiladi.

### 5-bob

#### Akkreditatsiya olish tartibi

5.1. Liga Matbuot xizmati akkreditatsiya jarayoni boshlanishi oldidan OAV vakillarini akkreditatsiya jarayonidan o'tkazish boshlangani, uning muddati va ariza berish qoidalari hamda tartibi to'g'risida o'z rasmiy sayti — [www.pfl.uz](http://www.pfl.uz) orqali ma'lum qiladi.

5.2. OAV vakilini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun beriladigan ariza OAV vakilini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun asos hisoblanadi. Istisno holatlarda Liga OAV vakili uchun akkreditatsiya bermaslik huquqiga ega. Bunda Liga akkreditatsiya nima uchun taqdim etilmayotgani izohlangan rasmiy ma'lumotni OAV uchun taqdim etadi.

5.3. Akkreditatsiya olish uchun OAV Liga tomonidan taqdim etilgan shaklda ariza varaqasini to'ldirishi lozim. Mazkur ariza OAV bosh muharriri (erkin jurnalistlar uchun akkreditatsiya talabgori) imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Ariza varaqasiga akkreditatsiya talabgorining ism-sharifi ilova qilinadi. Akkreditatsiyaga ilovada ko'rsatilgani bo'yicha ism-familiya yoziladi. Bunda OAV vakilining ism-sharifi uning fuqarolik pasportida aks etgan ism-sharifi ko'rinishida bo'lishi kerak. Akkreditatsiya olishda tahallus yoki boshqa ko'rinishdagi niklardan foydalanganlik holati aniqlansa, bu holatda akkreditatsiya berilmaydi.

Ariza varaqasiga OAV vakilining rasmiy uslubdagi elektron fotosurati ilova qilinishi kerak. Liga fotosurat sifatidan kelib chiqib, OAV vakilidan fotosuratni o'zgartirib berishni talab qilishga haqli.

Yuqorida talab etilgan hujjatlar elektron nusxada Liga elektron pochtasi — [media@pfl.uz](mailto:media@pfl.uz) manziliga yuboriladi.

5.4. Liga akkreditatsiya taqdim etish jarayonida ehtimoliy yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvidan kelib chiqib, quyidagi mezonlarga ketma-ketlik tamoyili asosida tayanishi mumkin:

- rasmiy hamkorlar va Liga axborot hamkorlari;
- futbol sohasiga ixtisoslashgan OAV;

- sport haqida xabarlar lentasiga ega OAV;
- boshqa sohaga ixtisoslashgan OAV.

5.5. Mazkur bobning 5.4 bandida keltirilgan ketma-ketliklar yuzasidan kelib chiqadigan bahsli vaziyatlar akkreditatsiya talabgori bo'lgan OAV (tashrif buyuruvchilar soni, Liga tomonidan o'tadigan musobaqalarning qay tarzda yoritilishi) auditoriyasiga, faoliyatiga qarab tartibga solinishi mumkin.

5.6. Tadbir yoki musobaqa o'tkaziladigan joy OAV vakillarini cheklangan miqdorda sig'dira olsa va akkreditatsiya uchun berilgan arizalar soni o'sha miqdordan oshib ketsa, Liga matbuot xizmati faqatgina muhimlilik darajasiga ko'ra OAV xodimlariga akkreditatsiya berish va akkreditatsiya sonini cheklash huquqiga ega. Bunda mazkur bobning 5.4 hamda 5.5 bandlaridan kelib chiqib, ish ko'rildi.

5.7. Akkreditatsiya olish jarayonida mazkur yo'riqnomasi qoidalariga amal qilmastlik, shuningdek, tadbir yoki musobaqa o'tkaziladigan joy OAV vakillarini cheklangan miqdorda sig'dira olsa, mazkur holat OAV uchun akkreditatsiya berishni rad etish uchun asos bo'ladi. Bunday holatlarda bir OAV uchun beriladigan akkreditatsiyalar soni Liga matbuot xizmati tomonidan belgilanadi.

5.8. Akkreditatsiya berish yoki uni rad etish akkreditatsiya uchun ariza qabul qilingan muddatdan keyingi 3 kun ichida Liga matbuot xizmati rahbari tomonidan hal qilinadi.

5.9. Akkreditatsiyani qalbakilashtirish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tegishli tartibda javobgarlikni vujudga keltiradi.

## 6-bob

### Akkreditatsiyadan mahrum qilish

6.1. Akkreditatsiyadan mahrum qilish mazkur yo'riqnomasi qoidalarining buzilishi oqibatida belgilangan jazoni bildirib, bunda Liga tegishli OAV yoki OAV vakilini tadbir va musobaqa uchun akkreditatsiya kartasini muayyan muddatga bekor qiladi.

6.2. Akkreditatsiyadan mahrum qilish jazosi mazkur Yo'riqnomasi qoidalari yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan kelib chiqqan holda, tegishli OAVga ham, OAV vakiliga ham qo'llanilishi mumkin.

6.3. OAV vakili Liga faoliyati, tadbir yoki musobaqalari haqida tashkilot imidjiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan darajada noto'g'ri, buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan chiqish qilsa, tadbir yoki musobaqa o'tkazilayotgan joyda ahloq, tartib-intizom normalariga rioya qilmasa, bu uning akkreditatsiyadan mahrum qilinishiga olib keladi.

 OAVning asoslantirilgan taklifidan kelib chiqib, Liga mazkur Yo'riqnomasi bandlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.